

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Azimova Gulmira Xayrullayevna

Navoiy davlat universiteti,

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarining ekologik ta'lism va tarbiyasini rivojlantirish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, ekologik ta'lism-tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, ekologik muammo, siyosiy-jug'rofij, tabiiy landshaft, tabiat qo'riqxona, modellashtirish.

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические проблемы развития экологического образования и воспитания дошкольников, формирования у них экологической культуры.

Ключевые слова. Экология, охрана окружающей среды, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическая ситуация, экологическая проблема, политico-географическая, природный ландшафт, заповедник, моделирование.

Annotation. This article analyzes the pedagogical problems of the development of environmental education and education of preschool children, the formation of ecological culture in them.

Keywords. Ecology, Environmental Protection, Environmental Education, ecological culture, environmental situation, environmental problem, political-geographical, natural landscape, nature reserve, modeling.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach yurtimizda ekologik vaziyatni izga solish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ekologik muammo masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, mamlakatimizda tabiiy atrof-muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. XXI asrning

boshlaridanoq fan-texnika jadal rivojlanib bormoqda. Dunyoning siyosiy-jug‘rofiy tuzilishi o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda insonning biosferaga ko‘rsatayotgan ta’sirini tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida “Ekologiya sohasidagi ishlarni yaxshilash uchun birinchi navbatda joylardagi chiqindilarni ustidan nazoratni kuchaytirish lozimligini aytib o‘tgan.

Ko‘pgina rivojlangan hamda qudratli davlatlar o‘zlarining kelajakka qaratilgan siyosiy va iqtisodiy masalalari zamirida eng avvalo ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi yotadi. Buning albatta o‘ziga yarasha sabablari mavjud. Albatta har qanday mamlakatning eng asosiy boyligi uning xalqi, shu mamlakatda yashayotgan insonlar hisoblanadi.

Ekologik ta’lim madaniyati insoniyatning yangi madaniyati bo‘lib, u insonning ekologik jihatdan sog‘lom xulq-atvori, faoliyati va inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasini rag‘batlantiradigan qadriyat yo‘nalishlarini belgilaydi. Keng ma’noda ekologik madaniyat insoniyat madaniyatining yangi mazmunidir.

Ekologik madaniyat- alohida shaxsning ibratli axloqiy-ekologik xatti-harakati boshqalarda zavq-shavq uyg‘ota olishlik holatini ifodalaydi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Ekologik madaniyat-kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lish.

Ekologik madaniyat- bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir.

1972-yilning 5-iyun sanasi **“Butunjahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni”** deb e’lon qilindi va xuddi shu yildan boshlab O‘zbekiston hamda BMTga a’zo tashkilot

hamda davlatlarda ushbu sana keng nishonlanib kelinadi. Ushbu kunda har bir insonning oldiga qilinadigan qator ishlar ro‘yhati tuzilib chiqildi:

**Shaxsiy
avtotransportlar
harakatini
kamaytirish;**

- **Velosipeddan keng foydalanish.**

**Suvni ehtiyojdan
ortiq sarflamaslik;**

- **Suvdan oqilona foydalanish.**

**Dam olish
maskanlarni
tozalash;**

- **Daraxtlar sonini ko'paytirish.**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **50-moddasida** “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, **55-moddasida** esa “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb ko‘rsatilishi mamlakatning barcha fuqarolariga sog‘lom muhit yaratish borasida katta ma’suliyat yuklash bilan birga ona tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni ko‘z qorachig‘idek saqlashni barcha fuqarolar uchun majburiy qilib qo‘ydi.

Bu borada O‘zbekiston mustaqillik yillaridan so‘ng ekologiya sohasiga oid ko‘plab qonun, qarorlar qabul qilindi. Ushbu qonunlar orqali yurtimizning ekologik qiyofasi belgilanib bormoqda. Tabiatni asrash, avaylash, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhafaza qilish, “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik va hayvonlarni, tabiiy landshaftlar, tabiat qo‘riqxonalarining muhofazasi qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, mustahkam himoyaga ega qilib qo‘yilgan. Ular quyidagilarni tashkil etadi.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim sohasida alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, “Maktabgacha ta’lim

davlat ta’lim standarti”, “Maktabgacha ta’lim konsepsiya”larining ishlab chiqilishi va tadbiq qilinishi umumiy pedagogik jarayonning muhim qismidir.

Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi tarbiyachilar ham o‘zlarida mavjud bo‘lgan barcha ta’lim usullari va uslublardan foydalanishga harakat qilishadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim berishning bir qancha shakllari mavjud. Bular: Vizual , amaliy , og‘zaki.

Vizual usul – yuz marta aytishdan ko‘ra, bir marta ko‘rsatgan ma’qul, ayniqsa, bolalar va ularning tabiat bilan munonasabatlari haqida. Ekologik ta’limda vizual usullar ; kuzatishlar, rasmlarni ko‘rish, modellarni namoyish qilish, slayd –shou.Vizual usullar – bolalarning bilim faoliyati imkoniyatlariga to‘liq mos keladi, ularga tabiat to‘g‘risida jonli, aniq g‘oyalarni shakillantirishga imkon beradi.

Amaliy usul – o‘yinlar, tajribalar, modellashtirish. Ushbu usullardan foydalanish tarbiyachilarga alohida ob’ektlar va tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni o‘rganish orqali fikrlarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish, tizimga olgan bilimlarini kiritish imkonini beradi.

Amaliy usullar bolalarni ekologik madaniyatga to‘liq qo‘shilishi uchun juda muhindir.

Og‘zaki usul – hikoyalar, badiiy asarlar, suhbatlar, og‘zaki usullar bolalarda tabiatga nisbatan emotsiyal ijobiy munosabatni shakillantirishga yordam beradi.

Og‘zaki usullar deganda biz suhbatlar, hikoyalar, o‘qiganlaringizni yoki ko‘rganlaringizni tahlil qilishni tushinamiz. Og‘zaki usullarni deyarli har doim vizual usullar qo‘llab – quvvatlaydi. Suhbat har doim har qanday o‘yin, tajriba, kuzatishdan oldin turadi. Boshqa har qanday usul suhbatga hamroh bo‘ladi.

Og‘zaki usullardan biri bu badiiy adabiyotni o‘qish. Bu yoki o‘quv dasturi tomonidan tavsiya etilgan maxsus ekologik adabiyotlar yoki mumtoz yozuvchilarning asarlari bo‘lishi mumkin. Hozirda ko‘plab mualliflar tabiat, hayvonat dunyosi, atrof – muhitni muhofaza qilish muammolariga e’tibor bergan holda o‘z kitoblarini nashr qildirishyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar», 55-moddasida esa «Yer osti boyliklari, suv, o‘simlik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» deyilgan. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o‘zgarib bormoqda. Yashil o‘rmonlar siyraklashib, o‘simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosfyera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarni ng ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta’minalash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg‘un bo‘lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Ekologik ta‘lim va tarbiyaning tub ma‘nosi - tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog‘luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ta‘lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘u-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasi” PF-60 sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-oktabrdagi “Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish to’g’risida”gi PQ-3956-tonli Qarori.
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi/Jizzax davlat pedagogika institut talabalari uchun o‘quv qo’llanma.-T.: 2018y, 10-13b, 14-17b

4. Badalova.M. Ekologik madaniyatning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida tutgan o'rni. science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022: 8.2/ 236-b.